

О‘ZBEKISTONNING NOMODDIY MADANIY ME‘ROSI TARIXI

Qurbonov Dilshodbek Norxidir o‘g‘li

Termiz Davlat Universiteti Madaniyat va san‘at muasasalarini tashkil etish hamda boshqarish ta‘lim yo‘nalishi talabasi

Azimov Abdulla Alyarivich

Termiz Davlat Universiteti Tarix fakulteti mamlakatlar va mintaqalar aro ta‘lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonning boy madaniyati, milliy qadriyat va urf-odatlarini, ularning hozirgi kundagi ahvoli e‘tirof etiladi. Xususan, o‘zbek xalqining asrlar davomida yaratilgan, sayqallangan va rivojlanayotgan ulkan nomoddiy madaniy merosi, uning tarixi va umummilliyligi, ularning o‘tmish ajdodlarimiz, qadimgi o‘zbek davlatchiligi, jamiyati orasida tutgan o‘rni, hozirgi O‘zbekiston ijtimoiy hayotidagi ahamiyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Barhayot va o‘lmas mezonlar jahon hamjamiyati tomonidan munosib e‘tirof etilmoqda. “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Konvensiya (2003 yil) talablariga muvofiq, ko‘plab xalqlarning madaniy rang-barangligi va an‘analarini o‘zida aks ettirgan qadriyat YuNESKO tomonidan Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi representativ ro‘yxatiga kiritib borilmoqda.

YuNESKOning Butunjahon merosi katalogi yoki ensiklopediyasi (World Heritage) – tabiat yoki inson tomonidan yaratilgan alohida madaniy, tarixiy va ekologik ahamiyatga molik ob‘yektlar jamlamasi bo‘lib, ularni asrab-avaylash, ommalashtirish va kelajak avlodlarga yetkazishni maqsad qiladi.

2021 yil holatiga ko‘ra, Butunjahon madaniy merosi ro‘yxatiga 1154 ta ob‘yekt kiritilgan bo‘lib, ularning 897 tasi madaniy, 218 tasi tabiat, 39 tasi aralash ob‘yektlardir. Bu ob‘yektlar YuNESKOning Butunjahon madaniy va tabiat merosini muhofaza qilish Konvensiyasini ratifikatsiya qilgan 193 mamlakat hududida joylashgan. Aslida, nomoddiy madaniy meros va uning muhofazasi masalalari YUNLiSKO 1989 yildagi «An‘anaviy madaniyat va folklorini muhofaza qilish» bo‘yicha Tavsiyalaridan boshlangan edi. 1994 yildan milliy tizimlar (davlatlar) tomonidan nomoddiy madaniy merosni o‘zida saqlovchi va boshqalarga yetkazuvchilarni rasman tan olishini va ular tomonidan ushbu merosning kelgusi avltxlga yetkazilishiga ko‘magini tashkil etish maqsadida «Insoniyatning yashovchi (lirllt) durdonalari» Dasturi boshlandi. 1997-1998 yillarda YUNESKO tomonidan «Insoniyatning og‘zaki va nomoddiy merosi durdonalarini e‘lon qilish» Dasturi ham ma‘kullandi va bu orqali dunyo xalqlari tomonidan saqlab kelinayotgan nomoddiy

madaniy meros durdonalrntn| ro yxatini tuzish va e'lon qilish imkoniyati yaratildi. Ushbu ro'yxatga 0 'zbekisKmdan birinchilardan bo'lib 2001 yilda «Boysun madaniy muhiti» va 2003 yilda «Shashmaqom» kiritilganligini yaxshi bilamiz. O tgan asming 90-yillarida ekspertlar xulosasi asosida mavjud nomoddiy madunly merosnimuhofaz ibo'yicha keskin, qat'iy choralar ko'rish lozimligi aniqlundl va ushbu yo'nalishdagi ishlar yanada jadallashtirildi. Buning natijasida YUNESKO Bosh Konferensiyasining 2001 yilda boiib o'tgan 31-sessiyasida yangi xalqMV normativ mexanizm vazifasini o'tovchi Konvensiya yaratish rejalashtirildi. Shunday qilib, YUNESKO Bosh Konferensiyasining 2003 yil 17 oktyabrdagi 32-se»»|ymll «Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish» Konvensiyasi qabul qilindi.

Ushbu Konvensiyada «nomoddiy madaniy meros», uning namoyon boiilt) sohalari hamda muhofazasi bo'yicha quyidagi ta'riflar berilgan. «Nomoddiy madaniy meros» tushunchasi urf-odatlami, o'ziga xoslikni ifodalash shakllari, bilimlar va ko'nikmalami, shuningdek, ular bilan bog'liq jihatlari, ishpredmetlar, artefaktlar va madaniy makonlami aks ettiradi, ular esa o'z navbatidahamjamiyatlar, gurhxlari, alohida holatlarda esa muayin shaxs madaniy merosining hlr qismi sifatida tan olinganligini anglatadi1. Avloddan avlodga o'tib kelayotgan bunday nomoddiy madaniy meros doimo muayyan hamjamiyatlar va guruxlar tomonidan ulaming atrof-muhitga, tabiatga va o'z tarixiga bog'liq holda yaratiladi va bu ularda o'ziga xoslikni, vorislik tuyg'usini shakllantiradi hamda shu bilan insoniyat ijodini va madaniyatni taranum etishdir. Nomoddiy madaniy meros quyidagi sohalarda namoyon bo'ladi2:

a) o'zlikni namoyon etishning og'zaki an'analari va shakllari, shu jumladan, ayni paytda til - nomoddiy madaniy merosni aks ettiruvchi omil sifatida;

b) ijro san'atida;

v) jamiyatning urf-odatlari, marosimlari, bayramlari;

g) tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar yig'indisi;

d) an'anaviy xunarmandchilik bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar.

«Muhofaza» so'zi nomoddiy madaniy meros hayotiyiligini ta'minlash, shu bilan birga uni identifikatsiyalash, hujjatlashtirish, tadqiq qilish, saklash, himoya qilish, ommalashtirish, rolini oshirish, targ'ib qilish choralari, asosan rasmiy va norasmiy ta'lim yordamida amalga oshirish hamda bunday merosning turli jihatlari qayta barpo etish degan ma'noni anglatadi3.

Mazkur Konvensiyaning 0 'zbekistonda ratifikatsiya qilinishi bo'yicha harakat 2005 yildan boshlangan edi. Konvensiya har tomonlama o'rganib chiqilishi natijasida tegishli takliflar tayyorlanib, Vazirlar Mahkamasi orqali Oliy Majlisga kiritildi va buning oqibatida 2007 yil dekabr oyida «Nomoddiy madaniy merosni muxofaza qilish» Konvensiyasi ratifikatsiya qilindi. Xalqaro normalarga ko'ra, ratifikatsiya ujjatlari taqdim etilgandan olti oydan keyin, ya'ni 2008 yil 29 apreldan boshlab O'zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyaning ishtirokchi-davlatiga aylandi.

Xalqaro hujjatlarni qabul qilish qoidalariga asosan O'zbekistondagi mavjud qonunchilikdagi nomoddiy madaniy meros bilan bog'liq masalalar qayta ko'rib chiqilishi va lozim bo'lgan hollarda tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi zarur edi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Oliy Majlisining Qonunchilik Palatasi boshchiligidagi ishchi guruhi tuzilib, 2001-yilda qabul qilingan «Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflar tayyorlandi. Ushbu takliflar Oliy Majlisning Senatida ham o'rganib chiqildi va oxir oqibat 2009 yilning 9-oktyabrida «Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga o'zgartirishlar kiritish haqida» OIRQ-228-sonli Qonuni qabul qilindi. Milliy qonunchilikni xalqaro normalar asosida qayta ko'rib chiqish jarayoni bilan bir qatorda nomoddiy madaniy merosni o'rganish, uning muhofazasini tashkil etish va kelgusi avlodga yetkazish jarayoni tashkil etildi. Xususan, 2008 yil fevral-mart oylari davomida «Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish» Konvensiyasi qoidalarining Madaniyat va sport ishlari vazirligi hamda xalq deputatlari mahalliy kengashlarida amal qilinishi masalasi o'rganildi. Maxsus komissiya tomonidan

O'zbek xalqi nafaqat moddiy, balki boy nomoddiy madaniy merosga ham ega. Bu nomoddiy meros asrlardan-asrlarga ajodlarimiz tomonidan avlodlarga yetkazib kelinmoqda. Istibdod yillarida butun xalqimiz kabi nomoddiy merosimiz ham ko'plab tazyiqlarga uchradi. Ammo xalq bu xazinani qalb qo'ri bilan istiqbol yillarigacha omon saqlab keldi va olamga namoyon etishga kirishdi.

Shu o'rinda, avvalo, nomoddiy meros nima, degan savolga qisqa javob qilsak. Nomoddiy meros muayyan bir xalqning asrlar davomida shakllangan og'zaki ijodi, ijrochilik san'atlari, jamiyatning urf-odat, marosim va bayramlari, tabiat va koinot bilan bog'liq bilimlari, an'anaviy hunarmandlikka oid bilim va ko'nikmalaridir. Mamlakatimiz 1992 yilda YuNESKOga a'zo bo'lgach, Boysun madaniy muhiti, "Shashmaqom", Katta ashula, Navro'z bayrami, Askiya, Palov madaniyati va an'analari, Adras to'qish kabi nomoddiy merosimiz namunalari YuNESKO representativ ro'yxatiga kiritildi.

Nomoddiy merosning 4 ta alohida ro'yxati yuritiladi. Bular — zudlik bilan muhofaza ostiga olinishi lozim bo'lgan nomoddiy madaniy meros ob'ektlari ro'yxati, nomoddiy merosning representativ ro'yxati, nomoddiy merosning milliy ro'yxati, nomoddiy merosning mahalliy ro'yxati.

Biror mamlakat o'zida yuritilayotgan nomoddiy meros milliy ro'yxatidan qaysidir nomzodnomani YuNESKoning zudlik bilan muhofazaga olinishi lozim bo'lgan ro'yxatiga yoxud representativ ro'yxatiga kiritishi mumkin. Buning uchun YuNESKoning o'z talablari va tartiblari mavjud. Mamlakat agar bu yil bir nomzodnomani YuNESKOga kiritisa, muayyan vaqt u yangi milliy nomzodnomani

boshqalarga ham navbat tegishi uchun taqdim etmay turadi. Agar u milliy emas, ko'p millatli (boshqa mamlakatlar bilan hamkorlikdagi) nomzodnoma taqdim etsa, unda har yili nomzodnoma taqdim etishi mumkin bo'ladi.

Ayni paytda nomoddiy merosimizning milliy ro'yxatidan yuzdan ortiq nomzodnoma o'rin olgan. Ularni bosqichma-bosqich tizimli ravishda YuNESKO ro'yxatlariga kiritish, jahon ahliga ko'z-ko'z qilish Madaniyat vazirligi, tizim ixtiyoridagi ilmiy muassasalar, YuNESKO ishlari bo'yicha milliy komissiya, qolaversa, sohada faoliyat yuritayotgan nodavlat tashkilotlarning birgalikdagi vazifalaridandir.

Buni dildan his etgan Xalqaro "Oltin meros" xayriya jamoat fondi 2016 yil noyabr oyidan milliy ro'yxatimizdagi "Xorazm raqsi — lazgi" nomzodnomasini YuNESKO representativ ro'yxatiga taqdim etish tashabbusi bilan chiqdi. YuNESKO ishlari bo'yicha milliy komissiya bu tashabbusimizni qo'llab-quvvatlagach, fond markaziy ofisida va Xorazm viloyatida mutaxassis va olimlar, tashabbuskorlardan iborat ishchi guruhlar tuzildi.

Xorazmdagi ishchi guruh faollari, jumladan, fondning Xorazm viloyati muassasasi raisi Komil Nurjonov va O'zbekiston xalq artisti, lazgi raqsi bilimdoni, ham amaliyotchisi Gavharxonim Matyoqubova ma'lumotlarni jamlash yuzasidan dastlabki ishlarni amalga oshirdi. Keyin "Oltin meros" fondida mutaxassislar vazifalarni taqsimlagan holda izchil ish olib bordi. YuNESKO ishlari bo'yicha milliy komissiyaning sobiq kotibi Alisher Ikromovning qat'iyati, maslahatlari bilan 5 oydan ortiq vaqt ichida YuNESKO talablari aks etgan shakl to'ldirilib, lazgi tarixi va buguni aks etgan 10 daqiqalik film suratga olindi. Lazgining xalqchilligi va latofati, ommaviyligi aks etgan 10 ta chiroyli surat tanlandi. G.Matyoqubova lazgi haqida risola tayyorladi. Mamlakatimizning turli burchaklaridan 30 dan ziyod davlat va jamoat tashkilotdan ushbu nomzodnomani qo'llab-quvvatlovchi maktublar yig'ildi. Ularning barchasi ingliz tiliga tarjima qilinib, maxsus kompakt diskka jamlangan holda, YuNESKO ishlari bo'yicha milliy komissiyamiz orqali Parijga yetkazildi. YuNESKO bosh qarorgohidagi elchimiz uni YuNESKOga taqdim etdi. Shundan so'ng 2 yil davomida biz nomzodnoma yuzasidan YuNESKO bilan yozishmalar olib bordik. Nomzodnomani takomillashtirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etdik. Nihoyat, 2019 yilning 12 dekabr kuni tunda Kolumbiyaning Bogota shahridan "Xorazm raqsi — lazgi" nomzodnomasi YuNESKO representativ ro'yxatiga kiritilgani haqida xushxabar oldik. Mavridi kelganda butun xalqimizni, ayniqsa, nomzodnomani tayyorlashda jonbozlik ko'rsatgan olimu mutaxassislarni bu muvaffaqiyat bilan chin yurakdan tabriklayman. Ular nomzodnomani tayyorlashda beg'araz, ishdan tashqari vaqtlarida biror ta'masiz mehnat qildi. Bu qadriyatlarimizga haqiqiy muhabbatning ifodasi bo'ldi.

Ta'kidlash joizki, hozirgacha YuNESKO tomonidan Turkiyaning "Mavlavi samo" (2005), Argentinaning "Tango" (2009), Peruning "Qaychi" (2010), Hindistonning "Chxau" (2010), Fransiyaning "Maloya" (2009), Ispaniyaning "Flamenko" (2010), Malavining "Mvinogi" ("Quvonch") (2014), Saudiyaning "Al-mizmar" (2016), Keniyaning "Uokanada", Kubaning "Rumbo" (2016) kabi 15 ga yaqin raqs representativ ro'yxatga kiritilgan.

Endi bevosita xalqimiz ijrochilik san'ati va lazgi raqsiga kelsak, hamyurtlarimiz o'zbek milliy raqs san'atining 5 ta farqli maktabi shakllanganini yaxshi biladi. Bular Farg'ona-Toshkent, Xorazm, Buxoro-Samarqand, Qoraqalpoq, Qashqadaryo-Surxondaryo raqs maktablari. Bu maktablar bir-biridan o'ziga xosligi, jozibadorligi, elementlari, harakatlarining mahalliy koloriti bilan farq qiladi.

Milliy raqs san'atimiz aniq ritm(usul)ga asoslanadi va harakatlar ohang o'zgarishiga monand ravishda tizimga solinadi. Yuqorida qayd etilgan dastlabki uch maktab paydo bo'lishi shu hududlarda mavjud bo'lgan Qo'qon xonligi, Buxoro amirligi, Xorazm xonligi hukmronligi bilan izohlansa, qoraqalpoq millati vakillarining joriy hududga kelib joylashishi O'zbekistonda raqs maktabining yangi ko'rinishi shakllanishiga omil bo'ldi. Qashqadaryo va Surxondaryo maktabi esa azaldan xalqona folklor unsurlarini jamlagani, erkin improvizatsiyasi bilan o'ziga xosdir. Har qanday holatda ham raqs maktablarining ko'pligi YuNESKO tomonidan alohida hurmat qilinadigan madaniyatning teran va rang-barangligi nishonasidir.

Raqsning barcha turlari kabi lazgining ham o'ziga xos tarixi bor. Bu tarix mana shu mo'tabar zaminimizda asrlar bo'yi yashagan ona xalqimiz taqdiri bilan uyqash va hamohang kechgan. Mutaxassislar lazgi tarixining ayrim harakatlarini inson yaralishi bilan bog'laydi. Xalqimiz dahosining durdonalaridan bo'lgan qadim "Avesto" ham ushbu raqs shakllanishida muhim o'rin tutgan. Jahon tarix fanining asoschilaridan biri bo'lgan Gerodot o'z asarida bundan 2500 yildan avval qadim xorazmiylarning Oks (Amudaryo) daryosi bo'yida olov yoqib, alanga ustiga xushbo'y giyohlar sepib, o'yin-kulgi qilib, gulxan atrofida tuni bilan holdan toyguncha ajib raqs tushib, tongni qarshilashi haqida ma'lumot beradi.

Lazgi shakllanishida Xorazmning qishi qattiq kelishi ham o'z aksini qoldirgan. Xususan, Abu Rayhon Beruniy o'zining "Osor ul-boqiya" asarida Xorazmda faqat 40 kun issiq bo'lishi, qolgan oylar nisbatan salqin va sovuq bo'lishini ta'kidlasa, Xorazmga tashrif buyurgan ajnabiy tarixchilar Ibn Fadlon va Abu Mansur as-Saolibiy ham o'z asarlarida (masalan, "Idil (Volga)ga sayohat", "Yatimat ad-dahr fi mahosin ahl al-asr" ("Asr ahlining fozillari haqida zamonasining durdonasi" kabi) bu o'lkaning sovuq iqlimi haqida xabar bergan. Shu bois, ayrim mutaxassislar raqsda titramalar — forsiy "larzidan" so'zining o'zagi ushbu raqs nomini belgilaganini aytadilar. Qadimiy sanskrit tilida ham "lasya" — "raqs", "lasaka" — "raqqos" ma'nosini berishi qayd etiladi.

Sho‘rolar davrida ayrim “olim”lar hatto lazgi raqsi Kavkazdagi lezginlarnikidan olingan, degan soxta ilmiy xulosalarga ham kelgan. Tariximiz qadimiyligini shu taxlit xaspo‘shlashga urinishgan. Tarixiy manbalar aslida buning aksini ko‘rsatib turibdi. Tarixchi olimlarimiz Jaloliddin Manguberdi 1225 yilda Tiflisni zabt etganida askarlarining bir qismi Kavkazda qolib ketgani, ular lazgining harbiycha harakatlarga monand ko‘rinishida raqs tushganlarini aytadi.

Har na qilganda ham lazgi raqsi bugungi kunlarga yetib keldi. O‘zbekiston xalq artisti, lazgi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar qilgan va amaliyotchi murabbiy Gavharxon Matyoqubova “Lazgi tarixi” asarida ushbu raqsning 9 turini farqlab ko‘rsatadi.

“Bugungi kunda Xorazmda lazgi raqsining 9 turi mavjud, — deydi tadqiqotchi. — Mana shu lazgilar har xil sharoitda paydo bo‘lib, asrlar osha davrimizgacha yetib kelgan. Totemizm — “Masxaraboz lazgisi”, animizm — “Qayroq lazgisi”, zardushtiylik — “Olov lazgisi”, afsonalardan kelib chiqqan “Dutor” va “Surnay” lazgilari, fantaziya mahsuli bo‘lgan “Xiva lazgisi”, shart-sharoit taqozosiga ko‘ra paydo bo‘lgan “O‘G‘LON bola” lazgisi, “Garmon lazgisi”, elatlarining aralashuvidan kelib chiqqan Xorazm eroniylari lazgisi farqlanadi. Ularning ijro uslubi har xil. “Masxaraboz lazgisi”ni o‘ynaydigan ijrochi “Xiva lazgisi”ni yoki “Dutor lazgisi”ni o‘ynovchi “Garmon lazgisi”ni o‘ynay olmasligi mumkin. Shuning uchun lazgi ijrochilarining uslubi turlicha, biri ikkinchisiga o‘xshamaydi. Bu uslublarni o‘rganish juda qiyin. Lazgining o‘z ijrochisi bor. Lazgini istalgan raqqosa, san’atkor o‘ynay oladi, deb o‘ylashadi. Bu noto‘g‘ri. Lazgini yuksak darajada o‘ynash uchun ilohdan berilgan qobiliyat bo‘lishi kerak”.

Lazgining YuNESKO representativ ro‘yxatiga kiritilishi xalqimizni ruhlantirdi. Nomoddiy merosimizning xalqaro e‘tirofi g‘ururimizni yuksaltirdi, albatta. Prezidentimizning Lazgi akademiyasini tashkil etishga oid tashabbusi, 2022 yildan boshlab Lazgi xalqaro raqs festivalini o‘tkazish haqidagi qarori kishini yanada quvontiradi. Bu chora-tadbirlar jahon ahliga boy milliy qadriyatlarimizni namoyon etish bilan bir qatorda, mamlakatimizning sayyohlik jozibadorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Shu o‘rinda millatimiz jonkuyarlari erishilgan yutuqlar bilan kifoyalanmay, YuNESKOga bu yil yangi nomzodnomalarni taqdim etganlarini ta’kidlamochiman. Olimlar, mutaxassislarimiz bu yil YuNESKO ishlari bo‘yicha milliy komissiya kotibiyati ko‘magi bilan yana 5 ta nomzodnoma taqdim etdi.

Bular: Baxshi san’ati milliy nomzodnomasi; Nasriddin Afandi an’anaviy hajviyalari ko‘p millatli nomzodnomasi (Turkiya, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston, Tojikiston); Rubob yasash va chalish an’analari ko‘p millatli nomzodnomasi (Eron, O‘zbekiston va Tojikiston); Xalq o‘yinlari (etnosport) ko‘p millatli nomzodnomasi (O‘zbekiston va Tojikiston);

Kashtachilik san'ati ko'p millatli nomzodnomasi (O'zbekiston, Qozog'iston va Tojikiston).Nomodiy madaniy merosimiz asrash birinchi va yuksak vazifamiz bulishi kerak

Foydalanilgan adabyotlar:

1. Amirqul KARIMOV „laʒgi_ nomodiy madaniy merosimiz durdonasi“
2. Gulnora Xudoyberdiyeva „Nomodiy madaniy meroslarni asrab avaylash“
02.02.2022
3. Haydarov Zahriddinbobur Umarovich „Nommodiy madaniy meros“